

**BOLALARDA KUZATILADIGAN PNEVMONIYANI KLINIK,
LABORATOR VA ETIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Qudratova Farangiz Mardonovna - laboratoriya ishi yo`nalishi 2-kurs
klinik ordinatori*

*Bozorova Sevara Yusuf qizi - laboratoriya ishi yo`nalishi 2-kurs klinik
ordinatori*

*Yakubova Charos Nizomiddin qizi – fundamental tibbiyot yo`nalishi 201-
guruh talabasi*

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Samarqand. O`zbekiston.

*Ilmiy rahbar: **Berdiyarova Sh. Sh.***

Mavzuning dolzarbligi: Bolalarda pnevmoniya pediatriyada eng ko‘p uchraydigan va jiddiy asoratlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan infeksiyon kasalliklardan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, pnevmoniya bolalarda kasallanish va o‘limning yetakchi sabablaridan biri bo‘lib, ayniqsa 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yuqori xavf guruhiga kiradi. Kasallikning klinik ko‘rinishlari yoshga, etiologik omillarga, immun tizimning holatiga va qo‘zg‘atuvchi turining o‘zgaruvchanligiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. So‘nggi yillarda virusli, bakterial va atipik pnevmoniyalar ulushi o‘zgarib bormoqda, bu esa kasallikni aniqlash va davolashda zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi. Shuningdek, antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning ko‘payishi, pandemik viruslar (masalan, gripp, RSV va boshqalar) bilan birgalikda kechuvchi infeksiyalar pnevmoniyaning etiologiyasini chuqur o‘rganishni yanada dolzarb qiladi. Laborator diagnostika usullarining takomillashuvi PZR, serologik testlar, biomarkerlar (CRP, prokalsitonin) pnevmoniyaning aniq etiologiyasini aniqlashga yordam berayotgan bo‘lsa-da, klinik belgilarning yoshga xos xususiyatlari tashxis qo‘yishda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot maqsadi: bolalardagi kuzatiladigan pnevmoniya kechishining zamonaviy klinik, laborator va etiologik xususiyatlarini aniqlash.

Materiallar va metodlar. Samarqand shahridagi "Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi" bolalar bo'limida davolangan 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan pnevmoniya bilan kasallangan 36 ta bolada kompleks tekshiruv o'tkazildi. Tekshirilayotgan bolalar orasida o'g'illar 19ta (52,8%) va qizlar 17ta (47,2%) ni tashkil etadi. Barcha bemorlar pnevmoniyaning morfologik shakllari (o'choqli pnevmoniya va segmentar pnevmoniya) bo'yicha 2 guruhga va yoshi bo'yicha 4 guruhga bo'lingan - yosh bolalar (1 - 2 yosh 18 ta 50 %), maktabgacha yoshdagi bolalar (3 - 6 yosh 15 ta 41.7%), kichikroq maktab o'quvchilari (7 - 10 yosh 3 ta 8.3%). Barcha bemorlar quyidagi tekshiruvdan o'tdilar: umumiy qon tahlili, peshobning umumiy tahlili, C-reaktiv oqsil (CRP) darajasini aniqlash uchun biokimyoviy qon tekshiruvi, ko'krak qafasi rentgenogrammasi, flora va antibiotiklarga sezgirlikni aniqlash uchun balg'amni mikroskopik va bakteriologik tekshirish. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar Microsoft Word dasturida yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqot natijalari: Tekshirilgan bemorlar orasida o'choqli pnevmoniya bilan og'rikan bemorlar ustunlik qildi - 22 bola (61,1%), segmentar pnevmoniya bilan og'rikan bolalar 2 baravar kam - 11 (30.6%), shundan 3 nafari (8.3%) - polisegmentar pnevmoniya bilan kasallangan bemorlardir. Shifoxonaga yotqizilgan bemorlarning aksariyati yosh bolalar edi - 18 (50%), shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar - 15 (41.7%), kichikroq maktab o'quvchilari 3(8.3%), Bemorlarning o'rtacha yoshi $5,05 \pm 3,93$ yil edi.

Yosh guruhlari	Umumiy		O'choqli pnevmoniya		Segmentar pnevmoniya	
	N	%	n	%	n	%
1-2 yosh	18	50	14	77.8	4	22.2
3-6 yosh	15	41.7	12	80	3	20
7-10 yosh	3	8.3	2	66.7	1	33.3

Xulosa:

1.Hozirgi bosqichda bolalarda pnevmoniyaning eng tez-tez uchraydigan klinik va morfologik shakli o`choqli o'ng tomonlama pnevmoniya bo'lib, o'rtacha kursi va o'rta bo`lagida o'pkaning 4 va 5 segmentlarida joylashadi.

2.Segmental pnevmoniya uzoq davom etadigan og`ir kechadigan febril tana harorati, aniq simptomlar va aniq laboratoriya o'zgarishlari bilan kechadigan pnevmoniya turidir.